

Isajon Sulton

# ABU RAYHON BERUNIY

*tarixiy-biografik roman*



**Toshkent - 2022**

## UCHINCHI QISM



### Xuroson. Alptegin

Endi Abu Rayhonni o'z holiga qo'yaylik-da, yeryuzining eng jasur, to'g'ri, marhamatli kishilari haqidagi hikoyatimizni boshlaylik. Bu sulolaning ilk qahramoni – mardlik va hamiyat o'rnagi, qo'rquv bilmas Alpteginidir.

Alptegin turk bekларidan birining o'g'li edi. Qarluq sulolalari o'z shahzodalарini “tegin”deb ataydilar. Shuningdek, ko'kturklar va uyg'urlar ham taxt vorislarini shunday nomlashgan.

Alptegin qaysi jangda, qay tarz asir qiliboligani ma'lum emas. Uni Xudo rahmat qilgur Ismoil Somoniyning o'g'li Ahmad ibn Ismoil sotib oldi. Keyinchalik u Hacp ibn Ahmadga ham bir necha yil xizmat qildi. Hacp ibn Ahmad olamdan o'tganidan so'ng, Hyh ibnNasrning xizmatiga kirdi.

U paytda tartib shunday edi: g'ulomlarning martabasi xizmatiga va qo'lidan ish kelishiga qarab ko'tarilardi. Agar biron qul sotib olinsa, u birinchi yil oddiy uzangichi bo'lib, etik kiyib, piyoda xizmat qilardi. Unga bir yil davomida yashirincha yoki ochiqchasiga otga minish taqiqlanardi. Bir yil yaxshi xizmat qilsa, unga yaxshiroq kiyim va bir qirchang'i ot egar-jabdug'i bilan olib berilardi. Bir yil shu ot bilan xizmat qilgach, oddiy qilich taqishiga ruxsat berilardi. To'rtinchi yili unga o'qdon va sadoq berilar, beshinchi yili yaxshiroq egar-jabduq, yulduzli jilov, qizil kiyim va halqaga osilgan kichik gurzi olardi. Oltinchi yili otdayurishi uchun maxsus etik va qadah berilardi. Yettinchi



yili u bir to'nlikka erishardi, sakkizinchi yili o'n olti tirgovichli chodir va uchta yangi sotib olingan qul berilib, vusoqboshilikka tayinlanardi, kumush bilan ziynatlangan qalpoq va ganjali libos hadya qilinardi. Shu tariqa, har yili kiyim-kechaklari orta-orta, xaylboshi va undan so'ng hojiblikka erishardi. Uning qobiliyati, hunari va axloqi hammaga ayon bo'lganidan keyingina ulug' ishlarga qo'shilar, lekin o'ttiz besh yoshigacha amirlik unvoni berilmas va viloyatlarni boshqarishga qo'yilmas edi.

Alptegin o'ttiz besh yoshida Xuroson lashkariga lashkarboshi bo'ldi. U sadoqatli, mard, jasur, saxiy va diyonatli kishi edi. Mo'minlarning barcha yaxshisiyaratlariga ega bo'lib, ko'p yillar Xuroson va Iroqni qo'l ostida ushlab turdi.

Somoniylar amiri Nuh ibn Hacp vafot etganida, Alptegin Nishopurda edi. Buxoro saroyining umarosi unga xat yozib, voqeani ma'lum qildi:

“Uning o'ttizga kirgan akasi va o'n olti yoshli o'g'li qolgan. Bu mamlakatning madori sening qo'lingda. Qaysinisini podshohlikka tayinlaysan?!”

Alptegin ham o'z elchisini yuborib aytirdi: “Ikkovi ham taxt va mulkka arziydi hamda amirimiz avlodidandir. Ammo malikning akasi tajribali, hayotning issiq-sovug'ini ko'rgan, odam qadri va martabasini biladigan, hurmatiga yetadigan kishi. Malikning o'g'li esa yosh, o'ylaymanki, u hali odamlarni bilmaydi, to'g'ri farmon berolmaydi. Akasini taxtgako'tarsalar, savob ish bo'lar edi”.

Ertasi kuni yana shu ma'noda maktub yo'lladi.

Besh kundan keyin chopari qaytib kelib, malikzodani podshohlikka ko'targanlarini aytdi. Alptegin yuborgan maktublaridan ko'ngli g'ash bo'lib, dedi:

– Bu nomardlar va betamizlar shunday ish tutarkan- lar, men bilan maslahatlashib nima qilardilar? Men



uchun ikkala malikzoda ham ko'zim qorachig'iday aziz. Maktubimda akasiga ishorat qilganman. Xatim ularga yetib borsa, malikning o'g'li mendan xafa bo'ladi. Va g'arazli kishilar qulay paytdan foydalanib, shahzodaga meni yomonlashga tushishadi.

U shitob bilan tezchopar otlarda o'z xabarchilarini yubordi va: "Borib, ikkala qosidni Jayhundan o'tmaslaridanoq topib, qaytaringlar", deb amr qildi.

Choparlar tezlik bilan ular ortidan quvib, birini Amu biyobonidan topishdi, avvalgisi esa Jayhundan o'tgan ekan. Shunday qilib, Alpteginning maktubi Buxoroga yetib bordi va uning mazmuni yosh malik hamda uning tarafdorlariga yoqmadi. "Akasiga ishorat qilgani yaxshi ish bo'lmabdi", deyishdi ular. "Axip, ota merosi akaga emas, o'g'ilga tegishini nahotki bilmasa?" deb ajablanishdi. Shu ma'noda, Alptegindan bolaning ko'nglini qoldirishga erishdilar. Alptegin uzr so'rab, ko'p ishlar qildi, ammo bu kin malikzoda yuragidan hech chiqmadi. Fasodchi va g'arazli kishilar yomonlik istab, malikzodaning jahlini kuchaytirardilar, uning g'azabiva xusumati oshib ketgan edi.

Alptegin qancha harakat qilsa ham, Buxoro amirlarining ko'nglini ololmadi. Ishonchli kishilar amir huzurida bo'lgan so'zlarni Alpteginga maktub yozibyo chopar orqali ma'lum qilishardi.

Dushmanlar esa Mansur ibn Nuhga aytishardi:

– Alpteginni o'ldirmaguningcha sen podshoh emassan va sening farmonlaring joiz bo'lmaydi. Ellik yildirki, u Xurosonda hokim. Ko'p mol-dunyo yiqqan, butun lashkar unga itoat qiladi. Uni bandi qilsang, xazinang obod bo'lib, o'zing ham tinchirding. Iloj shuki, uni saroyga chaqirib: "Mamlakat taxtini egallaganimizga bir necha yil bo'ldi, ammo sen huzurimizga kelib, biz orzu qilganimizdek, qasamyod etmading. Sen bizga ota o'rnidasan. Bizning davlatimiz



sen bilan bezatilgan va sen bizning Movarounnahr va Xurosondagi tayanchimizsan. Bu gaplardan maqsad shyki, tezroq saroyga kelishing va saltanat tartibini qayta tiklashing kerak. Shunda senga ishonchimiz oshib, g'arazli kishilarning tili qisqa bo'lardi", deb aytish lozim. Agarda u kelsa, bir xilvat joyga chaqirib, boshini olishga buyruq berasan.

Mansur ibn Nuh xuddi shu yo'sinda uni saroyiga da'vat etdi, bundan ko'zlangan maqsadni sohibxabarlar xat orqali Alpteginga ma'lum qilishdi.

Alptegin buyruq berib, Buxoroga jo'nashini e'lon qildi. Nishopurdan ko'chib, Capaxcga keldi. Uch kun o'tgach, barcha lashkarboshi-yu amirlarini huzuriga chorlab, dedi:

- Sizga gapim bor. Aytganimdan keyin o'ylab, bor fikringizni o'rta tashlaysizlar.

- Biz rozimiz, - deyishdi ular.

- Amir nima uchun meni huzuriga chaqirtirganini bilasizlarmi?

- U seni ko'rib, qaytadan bay'atlashmoqchi, chunki unga ota o'rnidasan.

- Ish sizlar o'ylagandek emas. Bu malik meni chaqirib, boshimni olmoqchi. U hali go'dak, mard kishilarning qadrini bilmaydi. Men somoniylarni ellik yildan buyon himoya etib kelayotirman. Ularga zarracha ham xiyonat qilmadim, davlatga qasd qilgan bir necha podshohlarni mag'lub etdim, har tomondan kelgan begona qo'shinlarni asfalasofilinga jo'natdim. Bu shohlikni uning otasi va boboci uchun asradim va asrayman ham. Endi menga rahmat aytish o'rniga, boshimni istab qolibdi. U bir haqiqatni bilmaydi: uning mulki bir tana va ytananing boshi menman. Agap bosh ketsa, tanada hech vaqoqoladimi? Endi aytinglar-chi, bu ziyonning chorasi ne?

Amirlar bir ovozdan dedilar:



– Buning chorasi qilichdir, agarda u sen haqingda shunday o‘ylasa va shu qapopga kelgan bo‘lsa, undan yana nima ham kutarding? Sening o‘rningda boshqa kishi bo‘lganida, ellik yil davomida mulkni ular qo‘lidan tortib olgan bo‘lardi. Biz seni bilamiz, uning na o‘zini, na otasini taniymiz. Somoniylar davlatidagi hap bir kishi o‘z noni, boyligiyu hashamati, viloyatlariga sen tufayli ega bo‘lganlar. Sendan boshqa munosib kishi yo‘qdir. Biz sening farmoningdamiz. Xorazm, Xuroson, Nimruz senga tobedir. Xohlasang, ularni tark etib, o‘zing podshoh bo‘l, xohlasang, Buxoro va Samarqandniularga ber, bo‘lmasa, uni ham ol.

– Tangri meni afv etsin, bilaman, bu so‘zlarni chin sadoqat bilan aytdingiz, sizdan shuni kutgan edim. Alloh taolo sizlarga yaxshilikni ato qilsin. Buguncha qayting, ertaga nima bo‘lishini ko‘rarmiz, – dedi Alptegin.

O‘sha vaqtda Alptegin itoatida o‘ttiz ming otliq lashkar bor edi. Ammo istasa, yuz ming suvoriyni ham o‘z qo‘liga olardi.

Ertasi kuni hamma amirlar saroyga yig‘ildilar. Alptegin o‘z joyiga o‘tiringach, amirlarga yuzlandi:

– Men bu so‘zlarni aytib, sizlarni sinamoqchi edim. Men bilan birgamisiz yoki yo‘qmi, shuni bilish maqsadimedi. Agap ishimiz tushsa, bizga ko‘mak berasizmi? Sizlarga ishonsa bo‘ladimi? Endilikda sizlardan kutganlarimni eshitdim, bu to‘g‘riligingizdan va sadoqatingizdan darak beradi. Ko‘rnamaklik qilmadingiz, men sizlardanxursandman. Ammo shuni bilib qo‘yingki, u bolaning yomonligini o‘zimdagi qilich kuchi bilan daf etaman. U go‘dak hech kimning haqini bilmadi, maslahatga qyloq solmadi. Bir necha yomon niyatli kishilarga ergashib, yaxshini yomondan fapqlolmadi. Uning xonadonini asrayotgan mendek kishining qadriga yetmadi, o‘ziga yomonlik tilaydigan badzotlarni tarbiyat qildi.



Mamlakatda ozgina halollik yuzaga kelsa, yo'q etmoqchi bo'ladilar. Ularni do'st deb bilib, mening jonimga qasd qilmoqchi. Men mulkni uning qo'lidan olib, o'rniga amakisini shoh qilishim yoki tojni o'zimga olishim ham mumkin. Ammo andisha qilaman, chunki odamlar: "Alptegin shuncha yil somoniylar xonadonini saqlab kelib, umri oxirida, qarigan chog'ida mulkni qilich kuchi bilan malikzodalardan tortib oldi, yegan tuziga xiyonat qildi", deb aytishlarini istamayman!

- Men to'g'pi nom bilan yashab keldim. Endi, bir oyog'im go'pga yetganida shu ishni qilib, yomonlik bilan nom chiqarmoqchi emasman. Ma'lumki, ayb hukmdordadir, ammo byni ko'p xalq bilmaydi. Birgypyh "Ayb Alpteginda" deydi. Garchand ularning mulkiga ham, o'zlariga ham ozor yetkazishni istamasam- da, toki men Xurosonda ekanman, by gaplar tamombo'lmaydi va u go'dakni menga qarshi qo'yib, ahvolimni qiyinlashtiradilar. Agar Xurosondan chiqib ketsam, g'arazli kishilarning so'zlariga hojat qolmaydi. Endi bir burda non uchun qilich tortishim kerak bo'ladi. Umrin oxirida bir marotaba kofirlarga qarshi yurish qilay, savob ish bo'lar. Ey amirlar, bilib qo'yinglarki, Xuroson va Xorazm, Nimruz va Movarounnahr lashkari amir Mansurnikidir. Men sizlarni unga itoat uchun asrab turdim. Saroyga boring, malikning xizmatida bo'ling. Men Hindistonga yurib, jihad va g'azo bilan mashg'ul bo'laman. Agarda o'lsam, shahidlik martabasiga erishaman, agarda g'olib bo'lsam, bir kofir diyorini jannat va Xudoyu Rasul uchun islom diniga kiritgan bo'laman. Yaxshi bo'lsam ham, yomon bo'lsam ham, Xuroson amirining men haqidagi so'zlari tugaydi, shunda u meni yaxshiroq bilib oladi.

U lashkar va raiyatga shunday so'zlarni aytib, umaronio'z oldiga da'vat qilib, dedi:

- Huzurimga keling, sizlar bilan vidolashay!



Amirlar uni by yo'ldan qanchalik qaytarmoqchi bo'lsalar ham, foydasiz edi. Yig'lab-yig'lab, u bilan xayrlashdilar. Alptegin chodiriga kirdi. Uning Xurosonni tark etib, Hindistonga borishiga hech kim ishonmasdi. Chunki Xuroson va Movarounnahrda besh yuz qishlog'i, har bir shaharda saroyi, bog'lari, karvonsaroylari va hammomlari, minglab yilqilari, son-sanoqsiz qo'y va tuyalari bor edi.

Ertalab nog'opa ovozi eshitildi. Ko'rdilarki, Alptegin o'z qullari va lashkari bilan shaharni tark etyapti. Xuroson amirlari esa Buxoroga ketishibdi. Alptegin Balxga yetib keldi va bir-ikki oy shu yerdaqolmoqchi bo'ldi, toki g'azot fikrida bo'lgan hap bir kishi Xatlon va Movarounnahr, Tohariston va Balx chegaralariga yetib kelsin va Hindiston yurishiga qo'shilsin.

Xuroson amirining dushmanlari va muxoliflari Mansur ibn Nuhga aytishdiki, Alptegin qari bo'ri, undan qutulish qiyin. Uni o'ldirmaguncha xotirjam bo'lolmaysan. Orqasidan qo'shin yuborib, tutib saroyga olib kelishing kerak.

Bir amirni o'n ming otliq bilan Buxorodan Balxga jo'natdilar. Qo'shin Termizga kelib, Jayhundandan o'tayotganida, Alptegin Balxdan ko'chib, Xulm degan joyga keldi. Xulm va Balx orasida bir tor dara bo'lib, uning ikkala tomonida qishloqlar joylashgan edi. Alptegin shu daraga qo'ndi. Qarshi taraf lashkari ham yetib kelib, shu yerda to'xtab qoldi. Dapaga kirolmay, sahroga o'rnashdi. Ikki oy shu ahvolda o'tdi.

Qo'shin bo'lukboshilari har kuni almashib qorovullik qilishar edi. Bu orada Alpteginning g'ayratli va shijoatli bo'lukboshisi Sabukteginning (bu paytdau yigirma ikki yoshda edi; u haqda keyinroq yana so'z keladi) qorovullik payti yetib keldi. Sabuktegin daradan chiqib, ortlaridan yuborilgan qo'shinga to'la





dashtni ko'rdi. O'zicha o'yladiki, amirimiz Alptegin mamlakatni va mol-mulkini Xuroson amiriga tashlab, g'azavotga yuz burdi, bular esa uning va bizning jonimizga qacd qilishyapti. Amirimiz sadoqatini saqlab, bularni hurmat qilishda davom etsa, menimcha, o'zini ham, bizni ham nobud qiladi. Bu ishni faqat qilich bilan hal qilish mumkin. Agap biz tinch yursak, ular bizni tinch qo'ymaydilar. Alloh azza va jalladan boshqa bizga madadkor yo'q. Bularning barchasi zolim, biz esa mazlumlarmiz.

U o'z bo'lugidagi navkarlarga qapata dedi:

– Bu barchamizning boshimizga tushgan bir savdo. Bular g'olib chiqadigan bo'lishsa, oramizdan bir kishi ham tirik qolmaydi. Bugun men bir harakat qilib ko'raman, xudo murod berar va qabul etar, agarda madad qilmasa, bo'lganicha bo'lar.

Shu so'zlarni aytib, uch yuz sarbozi bilan qorovullarga hujum qildi, ularni mag'lub etib, lashkap ustiga o'zini urdi. Qurol-yarog'ni ishga solib, mingdan ko'proq askarni safdan chiqardilar. Qarshi taraf o'zini o'nqlab, qayta hujum qilganida tezlik bilan opqaga – daraning tor og'ziga qaytdilar. “Sabuktegin dushman qo'shinining bir qismini halok etdi”, deb Alpteginga ma'lum qildilar.

Alptegin Sabuktegingan so'radi:

– Hega shoshding, cabp qilish kerak edi?

– Ey amirim, qancha sabr qilaylik? Pichoq borib, suyakka yetdi, jonimizni saqlashimiz kerak. Muammo sabr bilan emas, qilich bilan hal etiladigan bo'ldi. Jonimiz boricha siz uchun urushamiz, u eg'i nima bo'lsa bo'lar!

Alptegin dedi:

– Endi bundan yaxshipoq chora topish kerak. Aytinglar, chodirlarni yig'ib, yuklarni bog'lasinlar va xufton namozi vaqtida hamma narsani ortib, bu daradan chiqsinlar. To'g'on mingta qul bilan falon daraning o'ng



tomoniga, sen ham ming sarboz bilan chap tomonga, falon joyga borasan. Men mingta otliq bilan bu qarorgohdanchiqib, dashtda turaman. Ertasiga ular by joyga kelib, hech kimni topolmay, "Alptegin qochib ketibdi", deb o'ylashadi. So'ng hammalari ortimizdan kelib, tor joyga kiradilar. Bir qismi torlikdan chiqib, mening dashtda turganimni ko'radilar. Shunda sizlar ham o'ng va so'ldanchiqib, jang boshlanglar. Ular shovqin ko'targanida, lashkar torlikdan chiqib qoladi va menga ro'para bo'ladi. Ba'zilari: "Nima bo'ldi?" deb opqaga qaytishadi va sizlarga duch keladi. Men yuzma-yuz hujum qilaman. Sizlar torlikdan chiqasizlar. Ularni torlikda o'rtaq olamiz va qarshilik qilgunlaricha urushamiz. Bordi-yu, opqaga qaytmoqchi bo'lsalar, yo'llarini to'smaymiz. Qaytib, torlik joydan chiqib, qolgan qo'shin ustiga borib, o'ljalarni qo'lga kiritamiz.

Ular Alptegin aytganiday qilib, tor daradan chiqishdi.

G'anim lashkari qurollanib, urushga tayyor holda tongda torlik joyga kelib, hech kimni topmadi. Bir farsang yo'l bosib, torlik joyga kirib borishsa-da, Alptegin qo'shinidan nomnishon yo'q edi. Uni qochib ketdi deb o'ylab, shunday qarorga kelishdi: orqasidan boraylik, bu daradan chiqib, ularni quvib yetib, mag'lub qilib, Alpteginni qo'lga olaylik. Lashkar tezlik bilan yurish boshladi. Torlikdan chiqib, Alptegin ming suvoriy va piyodalari bilan dashtda turganini ko'rdilar. Ularning yarmi torlikdan chiqqanda, To'g'on chaptomondagi daradan ming kishilik Pul lashkari bilan chiqib, hujumga o'tdi. O'ng tomondan Sabuktegin chiqib, bosqin yasadi. To'g'on ham unga qo'shildi va askarlarni qirib, qo'shinni yer bilan yakson qildi. Lashkar tarqab, har tomonga to'zib ketdi. So'ng Alpteginning askarlari ham torlikdan chiqib, qolgan lashkarga hujum qilib, ot-tuyalarni, siymu zar, dinor va qullarni o'lja oldi.





Chodir, gilam va shunga o'xshaganlarni tashlab qaytdilar. Balx aholisi bu lashkardan qolgan narsalarni bir oy davomida uylariga tashidi. Talafot hisoblab chiqilganida, to'rt ming yetti yuz ellik kishi yer tishlagani ma'lum bo'ldi. Yaradorlar esa son-sanoqsiz edi.

Aytishlaricha, jang bo'lib o'tgan joydagi yerdan bir oygacha qizil rang ketmagan ekan. Bir oydan so'ng qor yog'ib, urush izlarini ko'mguniga qadar shunday turibdi.

Shundan so'ng Alptegin Xulmdan Bomiyonga ko'chdi. Bomiyon maliki bundan xabar topib, darhol taslim bo'ldi. Alptegin uni afv etib, o'g'illikka qabul qildi. Bomiyon amirining ismi Sherborik edi. Shundan keyin Alptegin Kobulga yurish qilib, uning amirini ham mag'lub etib, o'g'lini asir oldi. Kobul amirining o'g'li Ko'bakning kuyovi edi. Keyinroq uni ham siylab, otasi huzuriga yubordi. So'ng Fazniga yurish qildi. Fazni amirligini Kobul amirining o'g'liga berdi. Fazni amiri qochib, Capaxcga bordi. Alptegin Fazniga kelganida Ko'bak chiqib, u bilan jang qildi. Lekin ko'p qarshilik ko'rsatolmay, qal'aga qochib kirib yashirindi. Alptegin qal'ani qamalga oldi.

Zobuliston aholisi undan qo'rqardi. Lekin Alptegin "Hap bir askar aholi narsalarini tortib olmay, pulin to'lab sotib olsin", deb e'lon qildi. Tortib olgan kishiga jazo beraman, dedi.

Bir kuni Alptegin bir quli egari qoshiga bir qop somon va bir tovuqni bog'lab qo'yganini ko'rib, buyurdi:

– Anavi qulni oldimga olib kelinglar.

Buyruq bajarildi.

Alptegin undan so'radi:

– Bu somon va tovuqni qaerdan olding?

– Bir qishloqidan tortib oldim, – dedi u.

– Har oy bilgoniy maosh<sup>1</sup> olasanmi?

---

<sup>1</sup> Bilgoniy maosh – askarga xazinadan to'lanadigan oylik maosh.

- Olaman.

- Unda nega haqini to'lab olmading, men xalqdan biror narsani tortib olmanglar, deb sizlarga pul beraman-ku!?

U qulni bir qop somoni bilan dorga osishni buyurdi. Uch kun jar solib, e'lon ettirdiki, kimda-kim biror narsani kuch bilan tortib olsa, uning boshiga mana shu qulning qismati tushadi. Qo'shindagilar qo'rqib qoldi, raiyat esa tinchlandi. Har kuni atrofdagi qishloqlardan shuncha boylik kelardiki, son-sanog'i faqat Xudoga ayon edi. Ammo u biror narsaning bir manini ham shaharga olib borishga qo'ymasdi. Shahar aholisi bu holatni kurib: "Bizga shunday odil podshoh kerak. U turk bo'lsa ham, fors bo'lsa ham, tiz cho'kib itoat qilamiz, bola- chaqalarimiz, o'zimiz omon bo'lsak bas", deyishdi. Ular Alptegin oldiga keldilar. Ko'bak buni ko'rib, berkinganjoyidan chiqib, Alpteginga taslim bo'ldi. Unga nafaqa va maosh tayinladilar.

Alptegin Faznini o'ziga qarorgoh qilib oldi. Bu yerdan Hindistonga yurish qilib, ko'plab o'ljalarni qo'lga kiritdi. Xuroson, Nimruz va Movarounnahrda shunday xabar tarqaldi: "Alptegin Hindiston yo'lini ochib, ko'p zaru siym, molu boyliklarni qo'lga kiritibdiva uning sanog'i Xudogagina ma'lum. Shuncha o'lja va boyliklarga ega chiqqanki, chek-chegarasi yo'q".

Har tomondan uning oldiga odamlar kela boshladi. Qo'shin soni olti mingga yetdi. Alptegin Hind yerida Bekapurgacha bo'lgan joylardagi ko'p viloyatlarni qo'lga kiritdi. Hindiston shohi bir yuzu ellik ming otliq va piyodalari bilan chiqib, Alpteginni Hindistondanuloqtirib tashlab, lashkari bilan yo'q qilmoqchi bo'ldi.

Xuroson amiri Xulm va Balx orasidagi torlik joyda o'z lashkarini yo'qotganiga jahl qilib, Abu Ja'far degan bip kishini yigirma besh ming askar bilan Alpteginga qarshi yubordi. Alptegin esa Abu Ja'farni



Fazniga yaqin kelishga qo'yib berib, bor-yo'g'i olti mingotliq bilan ularga hujum qildi. Bir soat o'tmay, shu yigirma besh ming qo'shinni yengib, Balx yaqinidagi jangdan ham ko'proq talafot yetkazdi. Abu Ja'far qochibqutuldi. Dashtu cho'l oralab yura-yura, oxirida bir o'zi qoldi. U duch kelgan bir qishloq ahli uni tanimay, oti va narsalarini tortib olib, o'zini haydab yuborishdi. Upoyi piyoda, ne azob-uqubatlari bilan Balxga yetib keldi. Lashkarning barcha boyligi va ot-ulovlarini Alptegin qo'lga kiritdi.

Alptegin Abu Ja'farni yenggach, Hindiston shohiga qarshi chiqdi. Xuroson va boshqa tumanlarga maktub yubortirdi. Fanimat va o'lja olishni istab kelganlarning son-sanog'i yo'q edi. Ularning hammasi yosh va qurollangan bo'lib, saflanganida o'n besh mingotliq va piyoda edi. Qo'shin hind shohiga qarshi borib, to'satdan uning ilg'origa hujum qildi. O'n mingga yaqin hindlarni o'ldirib, o'ljalarni olmay opqaga qaytdi.

Hindlar buning bir hiyla ekanini payqamay, Alptegin ortidan quvib kelar ekanlar, tog' orasidagi bir daraga kirib qolishdi. Dara oxiri tik va baland qoyalar bo'lib, undan u yog'iga yo'l yo'q edi. Alptegin yashiringan tomonidan kelib, daraning og'zini to'sib qo'ydi. Hind lashkari ikki oy davomida daradan chiqolmay turdi. Alptegin vaqti-vaqti bilan, kechasi yo kunduzi bosqin qilib, hindlardan ko'p kishini o'ldirdi. Shunda so'ng Hind podshohi kishi yuborib, sulh istadi va aytilgan o'lponni to'lashga, bir nechta qal'ani g'oziyalarga berishga rozi bo'ldi.

Alptegin hind lashkarini tutqundan qo'yib yuborgach, qo'shin o'z mulkiga qaytdi. Biroq Hind podshosiahdnomada tilga olingan qal'adagilarga "Turklar kelsa, qal'ani topshirmanglar", deb tayinlagan edi. O'lpon uchun borganlarida, qal'adagi kishilar Hind shohi qal'ani topshirmaslikka buyruq berganini aytishdi. Shunda Alptegin:



– Men emas, ylap o‘z ahdlaridan qaytdilar, – dedi. Qayta hujum qilib, shahar va qal’alarni qo‘lga kiritdiva shu janglar chog‘ida tuyquv vafot etdi.

Uning lashkari taraddud va bezovtalik ichida qoldi. To‘rt tarafdin kofirlar o‘rab turardi. Ular yig‘ilishib, maslahat qilishdi: “Alpteginning o‘g‘li yo‘qki, uni otasio‘rniga o‘tqazsagu, bizga boshchilik qilca?! Hindistonda bizning boshimizga nomus va bir ylyg‘ ish tushdi. Hindlar ham bundan xavfsirab turishibdi. Agarda bir qapopga kelmasak, har birimiz amirlikka da‘vo qilamiz. O‘rtamizda nizo paydo bo‘lib, kofirlarga qarshi ko‘tarilgan qurolni bir-birimizning boshimizga solamiz. Iloj shuki, oramizdan eng loyiq kishini tanlab, uni o‘zimizga amir qilaylik. Qanday bo‘lmasin, farmonini bajaraylik, undan rozi bo‘pib, Alptegin tirik deb qabyl qilaylik”.

Hamma rozi bo‘lib, by ishning chorasi faqat shu ekanini aytishdi.

Shundan so‘ng ylyg‘ kishilarning nomlarini bir-bir tilga olaverdilar. Har birining aybini topib, uzr keltiraverdilar. Navbat Sabukteginga yetib, uning ismi tilga olinganida, hamma jim bo‘lib qoldi. Ulardan birkishi shunday dedi:

– Sabuktegingin boshqa hech kim by lavozimga loyiq emas, chunki u xizmat qilishni biladi. Hushyorlik, ziyraklik, jasurlik, saxovat va muruvvat, ochiqko‘ngillik, odamlarni hurmat qilish, yaxshi xylq, diyonat, to‘g‘rilik va sadoqatda unga teng keladigan kishi yo‘q. Men fikrimni aytdim, yana o‘zingiz bilasiz.

Boshqasi aytdi:

– Sulolalar va saltanatlar Alptegin kabi kishilar tufayli barqarorlikda bo‘ladi. Somoniylar davlati u tufayli quvvatlandi. Alptegin Xurosonni tark etganida, uning fazilatlari ozayib qolmadi, lekin, somoniylar taxtini baxt qushi tark etdi. Alptegin day

kishining dunyoga kelishi va bunday darajaga yetishishi uchun butun boshli bir umr, mehnat va omad kerak bo'ladi. Sabuktegin uning ishlarini har tomonlama davom ettira oladi. Uni Alptegin tarbiya qilib, yetuklikka yetkazdi. U Alpteginning odati va tariqatidadir. Sabuktegin har birimizning qiymatimizni biladi va qadrimizga yetadi.

Har tomondan tasdiqlovchi ovozlari keldi. Sabukteginni amir ko'tardilar. U rozi bo'lmagach, majburlab har xil so'zlarni aytdilar.

Nihoyat, u shunday dedi:

- Agap boshqa chora bo'lmasa, men bu fikrga roziman, faqat sizlar so'z beringlar, kim menga qarshi chiqsa yoki dushmanlik qilib, farmonimni bajarmasa, sizlar men bilan bo'lib, uni o'ldirasizlar.

Hamma rozi bo'lib ont ichdi, ahil bo'lib, ahd qildi. Uni oq gilamga solib ko'tarib, taxtga o'tqazdilar. Munosib qulluqlar qilib, boshidan tilla tangalar sochdilar.

Shunday qilib, sadoqatda va to'g'rilikda tengi yo'q Alptegin davri tugab, jasoratli va diyonatli Sabuktegin davri boshlandi.

